

BO'LAJAK O'QITUVCHILARNING KREATIV FIKRLASH KO'NIKMALARINI SHAKLLANTIRISH

Rashidova Saida Ravshonbek qizi

Guliston davlat universiteti

Boshlang'ich ta'lim yo'nalishi 4-kurs talabasi

Tayanch so'zlar: *kreativlik, fikr, oliy ta'lim, o'quv jarayoni, pedagog, kompetent, kompetensiya, ta'lim, fikrlash, bo'lajak o'qituvchi, talab, bilim, ko'nikma, malaka,*

Key words: *creativity, thought, higher education, educational process, pedagogue, competent, competence, education, thinking, future teacher, demand, knowledge, skill, qualification.*

Ключевые слова: *творчество, мышление, высшее образование, учебный процесс, педагог, компетентность, компетентность, образование, мышление, будущий педагог, потребность, знание, умение, квалификация.*

Annotatsiya: *Mazkur maqolada bo'lajak o'qituvchilarni kreativ kompetentligini rivojlantirishga oid tajriba sinov-natijalari, shaxsga xos kreativlik sifatlari, kreativ kompetentlikni rivojlantirish omillari, yo'llari hamda kreativ o'qitishning metod va strategiyalari yoritib berilgan.*

Abstract: *This article describes the experimental results of developing creative competence of future teachers, personal creativity qualities, factors and ways of developing creative competence, and methods and strategies of creative teaching.*

Аннотация: *В статье описаны экспериментальные результаты развития творческих способностей будущих учителей, творческих качеств личности, факторов и методов развития творческой компетентности, творческих методов и стратегий обучения.*

Dunyoda trendlar doim va tez-tez o'zgarib turadi. Bu trendlar ta'limga, o'qishga va ishga kirish jarayoniga va albatta siz va mening hayotimga ham ta'sir o'tkazmay qolmaydi. XXI asrda o'ta yuqori darajada rivojlangan va juda ko'plab an'analarni o'zgartirib yuborayotgan trend bu – kreativlik.

Kreativlik – bu qaysidir ma'noda yangi va foydali biror bir narsaning yaratilishiga hissa qo'shadigan fenomen. Boshqacha qilib aytganda, yangi mavhum biror narsa (asar, musiqa, idea yoki start-up) yoki jismoniy biror kashfiyot (mashina, qurilma yoki robot) kabilar yaralishi uchun eng kerakli vosita bu kreativlikdir.

Bo'lajak o'qituvchilar o'zlarining kreativ fikrlash qobiliyatlarini qulay muhitda to'la namoyon qilishlari mumkin. Agar bo'lajak o'qituvchilarda muvaffaqiyatsizlikka uchrash va qo'rquv hissi mavjud bo'lsa yoki tanqidga uchrashlar bunday vaziyatda ularda kreativ fikrlash ko'nikmalarini samarali shakllantirish yoki rivojlantirish mumkin bo'lmaydi. Bo'lajak pedagoglarda kreativlikni odatga aylantirish orqaligina kreativ fikrlash ko'nikmasini muvaffaqiyatli shakllantirish mumkin. Bu jarayonda ular tomonidan mavzu mazmunining puxta anglanishi va kreativ fikrlash ko'nikmalarini baholashda qo'llaniladigan metod va vositalar muhim ahamiyat kasb etadi.

Oliy ta'lim muassasalari va ulardagi o'quv-tarbiya jarayonini modernizatsiyalash, pedagog mutaxassislar tayyorlash tizimi sifatini oshirish, bo'lajak o'qituvchilarni zamonaviy kasbiy

kompetensiyalar bilan qurollantirish, ularda kasbiy faoliyatga nisbatan akmeologik motivatsiyani shakllantirish pedagoglarning kreativ kompetentligini rivojlantirish jarayonidagi muhim vazifalardan sanaladi[1].

Yuqoridagilar asosida ta'kidlash lozimki, bo'lajak o'qituvchilarda kreativ kompetentlik borasida yetarli darajada bilim, ko'nikma va malaka shakllanmagan, ularning kreativ kompetentligini rivojlantirishga yo'naltirilgan pedagogik jarayon o'ziga xos xususiyatlarga ega.

Shu bois pedagoglar oldida turgan asosiy vazifa-bu yoshlarda kreativlik, uning o'ziga xos sifatlari to'g'risida nazariy bilimlarni berish, ular asosida talabalarning kreativ kompetentligini rivojlantirishdan iborat. Mazkur vazifani ijobiy hal etishda ta'lim jarayoni, shu jumladan fanlarni o'qitishda faol ta'lim texnologiyalaridan foydalanish, mashg'ulotlarni noan'anaviy shakl, metod va vositalari yordamida qiziqarli va mazmunli tashkil etish kutilgan samaralarni beradi.

Shaxsga xos kreativlik sifatlari muayyan bosqichlarda izchil rivojlantirilib boriladi. Shaxsning kreativlik sifatlariga ega bo'lishi uning individual qobiliyatlari, tabiiy va ijtimoiy quvvatini o'z kasbiy faoliyatini sifatli, samarali tashkil etishga yo'naltiradi. Quyida shaxsga xos kreativlik sifatlaridan namunalar keltirib o'tamiz:

Shaxsga xos kreativlik sifatlari quyidagilar:

Ijodiy yo'nalganlik

Mantiqiy fikrlash qobiliyati

Eruditsiya (bilag'onlik)

Boy tasavvurga egalik

Ijodiy ta'sirchanlik va tashabbuskorlik

O'z ijodkorligini to'la-to'kis namoyish etish

Refleksiya qobiliyati

Hissiyotga boylilik

Tavakkal qila olish qobiliyati

Tafakkur tezligiga egalik

Ichki sezgining rivojlanganligi

O'ziga xos (orginal) g'oyalarni ilgari sura olish qobiliyati;

Innovatsion qobiliyatga egalik

Yuksak badiiy qadriyatlarga egalik

va bilimlar asosida qabul qilish malakasi

xslarda bo'lgani kabi pedagoglarda ham

kreativlik sifatlari o'z-o'zidan rivojlanmaydi. Shunga ko'ra, tadqiqotlarda shaxs (jumladan, pedagoglar)da kreativlik sifatlarini muvaffaqiyatli rivojlantirishning bir qator yo'llari yoritiladi.

Bo'lajak o'qituvchilar o'zlarining kreativ fikrlash qobiliyatlarini qulay muhitda to'la namoyon qilishlari mumkin. Agar bo'lajak o'qituvchilarda muvaffaqiyatsizlikka uchrash va qo'rquv hissi mavjud bo'lsa yoki tanqidga uchrash bunday vaziyatda ularda kreativ fikrlash ko'nikmalarini samarali shakllantirish yoki rivojlantirish mumkin bo'lmaydi. Bo'lajak pedagoglarda kreativlikni odatga aylantirish orqaligina kreativ fikrlash ko'nikmasini muvaffaqiyatli shakllantirish mumkin. Bu jarayonda ular tomonidan mavzu mazmunining puxta anglanishi va kreativ fikrlash ko'nikmalarini baholashda qo'llaniladigan metod va vositalar muhim ahamiyat kasb etadi.

Bo'lajak o'qituvchilarda kreativ fikrlash ko'nikmalarini shakllantirishda pedagog alohida o'rin tutadi. Bu jarayonda "pedagogning roli auditoriyada kreativlik muhitini yaratishdan iborat. Vaholanki, pedagog guruhda bo'lajak o'qituvchilar o'zini erkin seza oladigan va o'z fikrlari, g'oyalari bilan bo'lisha oladigan muhit yaratishi lozim. Bo'lajak o'qituvchilar inson ongida yuz berayotgan jarayonlarni yanada faollashtirish uchun o'rnatilgan qonun qoidalar, standartlardan chetga chiqib, turli savollar berishda erkin harakat qilishlari kerak. Pedagog bo'lajak o'qituvchilardagi kreativlikni noodatiy g'oyalarni o'rtaga tashlash va ularni verbal va noverbal tarzda rag'batlantirish orqali qo'llab-quvvatlaydi. Pedagogning bo'lajak o'qituvchilar berayotgan kreativ g'oyalari nisbatan to'g'ri munosabati ularning mumkin bo'lgan va mumkin bo'lmagan shartlarni anglashida muhim ahamiyatga ega. Mazkur elementlarning barchasi pedagog-talaba munosabatining muhim qismi bo'lib, bo'lajak o'qituvchilar muvaffaqiyatini ta'minlaydi. Kreativ muhitda ta'lim olayotgan bo'lajak o'qituvchilarda asta-sekin kreativ vazifalarni bajarishga nisbatan qiziqish ortadi, shuningdek, kreativ tafakkurga ega pedagogni kuzatish natijasida kreativ fikrlashga moyil bo'ladi. Kreativlik xarakteridagi o'quv-bilish muhiti bo'lajak o'qituvchilarda ta'lim jarayonida katta ahamiyatga ega bo'lgan tanqidiy va kreativ fikrlash ko'nikmasining rivojlanishiga olib keladi.

Bo'lajak o'qituvchilarning kreativ tafakkurga ega bo'lishlari ularda ijodiy muhitning qanchalik tarkib toptirilganligiga bog'liq. To'laqonli kreativlik xarakteriga ega ta'lim muhitini yaratish puxta o'ylangan rejaga tayanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Sharipov SH.S. Kasb-hunar ta'limida Talabalar ijodkorlik qobiliyatlarini uzluksiz rivojlantirish. Monografiya. - T.: Fan, 2005. - 140 b.
2. Z.T. Nishonova, Z.Qurbonova, D.S.Qarshiyeva, N.B.Atabayeva Psixodiagnostika va eksperimental psixologiya - T.: Fan va texnologiyalar 2014,124-b.
3. Тест креативности Торренса. Диагностика творческого мышления <http://psycabi.net/testy/577-test-kreativnosti-torrensa-diagnostika-tvorcheskogo-myshleniya>.
4. Drapeau Patti. Sparking student creativity (practical ways to promote innovative thinking and problem solving). - Alexandria - Virginia, USA: ASCD, 2014.
5. Pedagogik kompetentlilik va kreativlik asoslari" moduli bo'yicha o'quv-uslubiy qo'llanma. :- Toshkent 2015,40 b.